



YAIPI HUDUDY MAHSULOT HAJMINI TREND MODELLARI YORDAMIDA

PROGNOZLASHTIRISH

Odillov Abrorbek Qurbonnazar o'g'li


TISU 2-kurs talabasi

Annotatsiya :Maqolada Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining hajmini modelashtirish masalalari bayon etilgan

Kalit so'zlar: Trend, moddellari, eksponentsial, chiziqli, parabola, darajali, logarifmlik.

Ushbu raqamlar 2010-2024-yillar oralig'ida yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining o'sish tendensiyasini aks ettiradi. 2010-yilda 3 394,7 mlrd so'mni tashkil qilgan YHM, 2024-yilga kelib 54 354,1 mlrd so'mga yetgan. Bu degani, ushbu davr mobaynida iqtisodiyot barqaror o'sib borgan. Ayniqsa, 2016-yildan keyin o'sish sur'ati tezlashib, 2016-2024-yillar oralig'ida YHM qariyb 3,3 baravar oshgan. Bu iqtisodiy islohotlar, investitsiyalar hajmining oshishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yillik o'sish sur'atlarini tahlil qilsak, dastlabki yillarda nisbatan past bo'lgan o'sish, keyinchalik jadalroq tus olgan. 2010-2015-yillarda YHM yiliga o'rtacha 1 500-2 000 mlrd so'mga oshgan bo'lsa, 2016-yildan keyin bu ko'rsatkich ancha yuqori darajaga chiqib, ayrim yillarda 6 000-7 000 mlrd so'mgacha yetgan. Bunday dinamik o'sish iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyalanganini va yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoat, xizmatlar hamda qishloq xo'jaligi sohalarining ahamiyati oshganini ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, inflyatsiya va valyuta kursi o'zgarishlari ham YHM nominal hajmining ortishiga ta'sir qilgan bo'lish ehtimolda holi emas.



1-rasm 2010-2024-yillar uchun Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmini (mlrd so'm)





1. Trend modellaridan foydalangan holda yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmini modellashtirish iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli tendensiyalarini aniqlash va prognoz qilishga yordam beradi.
2. Linear, eksponensial yoki logistika modellar orqali YHM dinamikasini tahlil qilish kelajakdagi rivojlanish trayektoriyasini baholash va investitsiya strategiyalarini shakllantirishga imkon yaratadi.
3. Modellashtirish natijalari asosida iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish, resurslarni optimal taqsimlash va hududiy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash mumkin.

Vaqtli qatorni prognozlash uchun trend modelidan foydalanildi bunda quyidagi natijaga erishildi.


1-jadval

Model turlari

T /r	Model	Tenglamasi	Determinatsiya koeffitsiyenti
1	Eksponensial	$y = 7E-163e^{0,1899t}$	$R^2 = 0,9913$
2	Chiziqli	$y = 3459,6t - 7E + 06$	$R^2 = 0,9229$
3	Logarifimli	$y = 7E + 06 \ln(x) - 5E + 07$	$R^2 = 0,9224$
4	Darajali	$y = 0t^{383,04}$	$R^2 = 0,9915$
5	Polinom	$y = 254,21t^2 - 1E + 06t + 1E + 09$	$R^2 = 0,9964$

1-jadvalda determinatsiya koeffitsiyenti Polinom modelda eng katta demak u eng sifatli model .Uning chizmasi quyidagicha keltirilgan

2-rasm 2010-2024-yillar uchun Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmini (mlrd so‘m)





Xulosa qilib 2010-2024-yillar uchun Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi uchun mos model Polinom trend modeli hisoblanadi.Uning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9964$.Ushbu modeldan foydalanib prognoz qiymatlar ishlab chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.F.T.Alimardanova.B.E.Turayev.Trend modelari yordamida sanoat ishlab chiqarish hajmini modelashtirish //Журнал <<образование и наука в XXI веке>>.

№45-4 (декабрь,2023)

2.www.surxonstat.uz-Surxandaryo viloyati statistika boshqarmasi sayti

